

"OT" KOMPONENTLI O'ZBEK VA TURK MAQOLLARIDA QADRIYATLAR TALQINI

Sabohat BOZOROVA*

ANNOTATSIYA. O'tmishdagi madaniy qadriyatlar haqidagi ma'lumotlar til vositasida keyingi avlodlarga yetkaziladi. Shu ma'noda tilni "ma'naviy qadriyatlarni kelajak avlodlarga yetkazuvchi moddiy va ma'naviy ko'prik", deb ta'riflash mumkin. Til birliklarining tadqiqi natijasida ularning mohiyati to'laroq ochiladi, amaliy ahamiyati oshib boradi. Frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadi. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtayi nazaridan o'rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilish ham tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

KALIT SO'ZLAR: ot, o'zbek maqollari, turk maqollari, til, madaniyat, qadriyat.

ABSTRACT. Information about past cultural values is transmitted to future generations through language. In this sense, language can be described as "a material and spiritual bridge that conveys spiritual values to future generations". As a result of the study of language units, their essence is fully revealed, and their practical importance increases. Phraseological units are a linguistic phenomenon that shows the spiritual values, national thinking, lifestyle and traditions of one or another nation. Studying the relationship between language and culture from the point of view of the linguistic landscape of the world, analyzing the issues of understanding the national mentality is also of theoretical and practical importance for linguistics.

KEY WORDS: horse, Uzbek proverbs, Turkish proverbs, language, culture, values.

Voqelikdagi muayyan hodisalarining umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha qadriyat hisoblanadi. Qadriyatlar haqidagi dastlabki qarashlar Aristotelga tegishlidir. Aristotelning so'zlar ma'nosini tavsiflovchi predikatlar bilan taqqoslab tahlil qilishi va

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi. sabohatbozorova@gmail.com.

aksiolingvistikaning shakllanishiga salmoqli hissa qo'shgani N.Arutyunova tomonidan ham ta'kidlangan (Арутюнова Н., 1988:13).

Qadriyatlarni ifodalovchi va aksiologiyani shakllantiruvchi lisoniy vositalar aksiolingvistikaning predmeti sanaladi. Aksiolingvistikaning vazifasi til birliklarini qadriyatning tarkibiy qismi sifatida reallashtirish bo'lsa, maqsadi dunyoning qadriyat manzarasini tadqiq qilishdir.

Aksiolingvistikaning rivojida A.Ivin, N.Arutyunova, Y.Volf, S.Pavlov, Y.Serebryannikova, V.Karasik, L.Bayramova, G.Bagautdinova, G.Gibatova, R.Yunusova, P.Breshon, N.Nelyubova, V.Xiltbrunner, V.Yershov, D.Moskalyova, A.Golovanova, L.Katsyuba, T.Vladimirova singari olimlarning **tadqiqotlari muhim o'rinni tutadi**.

Maqollarning aksiologik imkoniyatlari hamda qadriyatlar tizimi dunyo tilshunosligida chuqur tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida ham maqollarga xos xususiyatlari qiyosiy hamda chog'ishtirma asosda tahlil qilingan. Jumladan, qardosh bo'limgan tillardagi madaniy belgilar o'zbek va ingliz maqollarini misolida o'rganilgan (Рахматова М., 2019).

O'zbek xalq maqollarining pragmatik xususiyatlari; maqollarni yuzaga keltiruvchi intralingvistik va ekstralingvistik omillar alohida tadqiqot obyektini tashkil qilgan (Жўраева Б., 2019).

Nutq madaniyatini ifodalovchi o'zbek xalq maqollarining lingvo-funksional va xulqiy qiymati aniqlangan (Ахропов А., 2021).

O'zbek va rus maqollarida aks ettirilgan qadriyatlar tizimi darajalari belgilangan, antropotsentrik maqollardagi shaxs qiyofasini aksiologik talqin qilish modeli ishlab chiqilgan (Маджидова Р., 2020).

O'zbek tilshunosligida maqollarning aksiolingvistik xususiyatlari ham ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Gavharoy Komilovaning "O'zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili" mavzusidagi dissertatsiyasida maqollardagi qadriyatlar tizimi tahlil qilingan. Dissertant o'zbek maqollarida aks etgan qadriyatlarni 7 turga ajratadi: 1. Intellektual qadriyatlar. 2. Estetik qadriyatlar. 3. Axloqiy qadriyatlar. 4. Ijtimoiy qadriyatlar. 5. Fiziologik qadriyatlar. 6. Iqtisodiy qadriyatlar. 7. Diniy qadriyatlar (Комилова Г., 2022). "Ot" komponentli o'zbek va turk maqollarida bu guruhlarga mansub bo'lgan qadriyatlarning barchasi ifodalangan.

Har bir tilning imkoniyatlari uning so'z boyligiga qarab belgilanadi. Maqollar so'z boyligini yanada oshiruvchi vositalardandir. Ularda dunyoqarashimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz, e'tiqodimiz aks etadi. O'z ma'nosida va ko'chma ma'noda ishlatiluvchi

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, Oktabr 2024

maqollarda jamiyat hayoti, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ijtimoiy hukmlar, axloqiy mezonlar haqidagi muhim ma'lumotlar o'ziga xos tarzda ifoda etiladi. O'zbek va turk tillarida "ot" komponentli maqollar sonining juda ko'pligi diqqatga sazovor. Ularda asrlar osha yashab kelayotgan qadriyatlar ulug'lanadi.

Ot turkiy xalqlar hayotida muhim o'rinn tutadi. Moddiy to'kislik, ijtimoiy mavqe ramzi bo'lgan otga egalik qilish oson emasligi *Ata eyer gerek, eyere er gerek* (Otga egar kerak, egarga er (mard) kerak); *At at oluncaya kadar sahibi mat olur* (Ot ot bo'lguniga qadar sohibi mot bo'lur) maqollarida haqiqiy erkak, mard insonning boshqalarni ham o'ziga teng ko'rishi, ot hadya qilish qadriyati *Yiğit yiğide at bağışlar* (Yigit/mard yigit/mardga ot berar) maqolida o'z ifodasini topgan. *Atta, avratta uğur vardır* maqolida otni va ayolni muqaddas deb bilish qadriyatining tasvirini ko'ramiz.

Og'ir kunda yordam berish xalqlarimizning azaliy ezgu odatlaridandir. *Qadr bilgan qarindosh mard bo'lishga ko'ndirar, Er boshiga er tushsa, suyab otga mindirar* maqolida mard inson o'zganing boshiga ish tushganida yordam qo'lini cho'zishi, qo'llab-quvvatlashi, hayotda o'z yo'lini topishiga imkon yaratishi tasvirlangan.

Hayot tahlikalarga to'la. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun har bir masalani chuqur o'ylab ko'rish, ehtiyyotkor bo'lish, boy hayot tajribasiga ega bo'lgan insonlar bilan bamaslahat ish tutish zarurligi "ot" komponentli maqollar misolida ham talqin etiladi. Masalan, *Ot olma piyodanining maslahati bilan, Xotin olma bo'ydoqning maslahati bilan; Ot olsang, minib ol, Xotin olsang, ko'rib ol* maqollarida ot minib ko'rmagan, oti bo'lмаган inson otning qandayligini, uni qanday parvarishlash lozimligini; uylanib, oila qurmagan inson esa xotin-qizlarning qandayligini, oila mustahkam bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini bilmasligi uqtiriladi.

Ot ayagan ot minar, To'nni ayagan to'n kiyar; Aqllining oti ham horimas, To'ni ham to'zimas; Atina bakan ardina bakmaz (Otiga qaragan ortiga qaramas); *İki at bir kaziğa bağlanmaz* (Ikki ot bir qoziqqa bog'lanmaydi) *Irmaktan* (çaydan/dereden) geçerken at değiştirmez (Daryodan(soydan/daradan) o'tayotganda ot almashtirilmaydi) maqollarida ehtiyojimiz uchun kerakli narsalarni ehtiyyotlab, avaylab ishlatalish zarurligi, moddiy masalada bu jihat juda muhimligi, tejamkor bo'lish; vaziyatni kuzatish, ehtiyyotkorlik asosida ish tutish kerakligi haqidagi fikrlar o'z aksini topgan. *Ot minmagan ot minsə, chopa-chopa o'ldirar, To'n kiymagan to'n kiysa, silkita-silkita to'zdirar* maqolida oldingi ahvolidan farq qiladigan holatga kelgan kishining nima qilishini bilmay qolishi, o'ziga ziyon yetkazadigan

ishlarga qo'l urishi, jumladan, ot minmagan inson ot minsما, tinmasdan uni choptirib azoblashi, to'n kiymagan to'n kiysa, hammaga maqtanib, silkita-silkita to'zdirishi tasvirlangan. Nozik kuzatishlarga asoslangan bunday ijtimoiy hukmlar jamiyatning ma'naviy qadriyatlari haqida tasavvur hosil qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Yo 'rg'aning qadri yelganda bilinadi, Yaxshining qadri o'lganda bilinadi maqoli hayotdagi imkoniyatlarni, yonimizdagi insonlarni qadrlashga undaydi.

Buyurmadan tutan evlat, gün doğmadan kalkan avrat, deh demeden yürüyen at (Buyurmasdan qilgan farzand, kun chiqmasdan uyg'ongan xotin, ogohlantirmasdan yurgan ot) maqolida farzandning ota-onaliga buyrug'ini kutmasdan o'z vazifalarini, uy yumushlarini bajarishi; ayolning barvaqt uyqudan turishi; egasining "Yur" deyishini kutmasdan yuradigan otning yaxshi ekanligi; *Ikki ot tepishsa, O'rtada eshak o'lar // Atlar tepisir, arada eşekler ezilir; At teper, katir teper arada eşek ölüür maqollarida kuchlar, mavqelar teng bo'limgan vaziyatlarda aybsizlarning zarar ko'rishi; Ata binersen Allah'i, attan inersen ati unutma* (Otga minsang, Allohn, otdan tushsang, otni unutma) maqoli mazmunida esa hayotdagi vaqtinchalik muvaffaqiyatlar, moddiy boyliklar tufayli manmanlik qilmaslik, har qanday amal, to'kis hayotning so'ngi borligini unutmaslik; ot haqida doimo g'amxo'rlik qilish tavsiya etiladi.

"Ot" komponentli o'zbek va turk maqollarida tabiat va hayotdagi turli vaziyatlar diqqat bilan kuzatilgani, tahlil qilingani, jamiyatdagi qonun-qoidalar, axloqiy mezonlarga tayangan holda, ta'sirchan shaklda munosabat bildirilgani, tavsiyalar berilganini kuzatamiz. Ularda yaxshilik, sadoqat, vatanparvarlik, mardlik, mehnatsevarlik, naslga e'tibor berish, oilani asrash, ne'matlarni qadrlash singari qadriyatlarsiga talqiniga alohida ahamiyat qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Aksan D. Türkçeye Yansıyan Türk Kültürü. – Ankara: Bilgi Yayınevi, 2011.

Aksoy Ö. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul:İnkılâp Kitabevi, 1988.

Aksoy Ö. Benzerlikleriyle Türk Dünyasında Atasözleri. – İstanbul: Kültür Konseyi, 2021.

Aksu B., Akalın Ş., Toparlı R. Türk Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: TDK Yayınları, 2022.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 10, Oktabr 2024

Akkuş M. Atasözleri ve Deyimler Üzerine İncelemeler. – Ankara: Akçağ Yayınları, 2022.

Bozorova S. "Devonu lug‘ati-t-turk"dagi "ot" komponentli maqollar tahlili. O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.374-378.

Gümüş M., Yoldaşev İ. Türkçe Açıklamalı Özbek Atasözleri. – Ankara: Engin Yayınevi, 1995.

Çobanoğlu Özkul. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: Atatürk Kültür Merkezi Başkanlığı Yayınları, 2004.

Çotuksöken Y. Türkçe Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: Toroslu Kitaplığı, 2004.

Ercilasun A. Dîvânu Lugâti't-Türk'teki Şiirler ve Atasözleri. İstanbul: Bilge Kültür Sanat Yayın Dağıtım San. ve Tic. Ltd.Şti, 2020.

Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шакланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол.фн.докт...(ДС) дисс. – Самарқанд, 2019.

Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол. фн. бўйича фалсафа доктори дисс. – Тошкент, 2022.

Öz A. Hayvanlarla İlgili Özbek Atasözleri. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, 2000, № 9, 114-160.

O‘zbek xalq maqollari. (2019). Toshkent: Sharq.

O‘zbek xalq maqollari. (2019). Toshkent: Noshirlik yog‘dusi.

Shomaqsudov Sh., Shorahmedov, Sh. (1990) Hikmatnomma. Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi.

Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. (2001) Ma'nolar maxzani. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.

Tosheva D.(2017). Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol.fan.b.f.d...(PhD) diss. Toshkent.

Yurtbaşı M. Sınıflandırılmış Türk Atasözleri. – Ankara: Özdemir Yayıncılık, 1994.